

UO‘K: 82-32; 821.131.1

**DEKAMERON – UYG‘ONISH DAVRI FEMINISTIK
ADABIYOTI DURDONASI****Boqijonova Rayhonoy Erkinjon qizi**

Mustaqil izlanuvchi

e-mail: rayhonoyb@gmail.com

Tel: (99) 138 35 36

Annotatsiya

Maqolada Giovanni Boccaccio tomonidan yaratilgan “Dekameron” asari Uyg‘onish davri kontekstida tahlil qilinadi. Unda ayol obrazi transformatsiyasi, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar hamda feministik adabiyot nuqtai nazaridan yangi qarashlar yoritilgan. Asarda ayollar obrazining kuchli, erkin va mustaqil tasvirlanishi feministik g‘oyalarning dastlabki manbalaridan biri sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Boccaccio, Dekameron, uyg‘onish davri, ayol obrazi, feministik adabiyot, realizm.

**«ДЕКАМЕРОН» – ШЕДЕВР ФЕМИНИСТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЭПОХИ
ВОЗРОЖДЕНИЯ.****Бокижанова Райхоной**

Соискатель

e-mail: rayhonoyb@gmail.com

Tel: (99) 138 35 36

Аннотация

В статье анализируется произведение Джованни Боккаччо «Декамерон» в контексте эпохи Возрождения. Рассматривается трансформация образа женщины, социально-политические изменения и новые взгляды с точки зрения феминистской литературы. Сильное, свободное и независимое изображение женщин в произведении рассматривается как один из первоисточников феминистских идей.

Ключевые слова: Боккаччо, «Декамерон», Возрождение, образ женщины, феминистская литература, реализм.

**DECAMERON – A MASTERPIECE OF FEMINIST LITERATURE
OF THE RENAISSANCE.****Bokijonova Raykhonoy**

Independent researcher

e-mail: rayhonoyb@gmail.com

Tel: (99) 138 35 36

Annotation

The article analyzes the work “Decameron” by Giovanni Boccaccio in the context of the Renaissance. It highlights the transformation of the image of women, socio-political changes, and new views from the point of view of feminist literature. The strong, free, and independent depiction of women in the work is considered one of the primary sources of feminist ideas.

Keywords: Boccaccio, Decameron, Renaissance, image of women, feminist literature, realism.

Kirish

XIV asr Italiya adabiyoti uygʻonish davrining ilk bosqichi hisoblanadi. Shu davrda inson, uning ichki dunyosi va erkinlik gʻoyalari alohida qadrlana boshladi. Giovanni Boccaccio ijodi, xususan, “Dekameron” asari bu davrning eng yorqin namunalaridan biridir [1]. Mazkur asar oʻrta asr diniy-dogmatik qarashlardan voz kechib, insoniy munosabatlarni realistik yondashuv asosida aks ettirgani bilan ajralib turadi[3; 4].

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, “Dekameron” nafaqat oʻrta asr jamiyatidagi axloqiy oʻzgarishlarni, balki ayol obrazining yangicha talqinini ham yoritib, feministik adabiyotning ilk shakllanishiga zamin yaratgan [5; 6].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlar asosida olib borildi:

Tarixiy-adabiy metod – asarning yaratilish davri, qora oʻlatdan keyingi Florensiya jamiyatidagi oʻzgarishlar kontekstida oʻrganildi[3].

Stilistik va gʻoyaviy tahlil – ayol obrazi transformatsiyasi, erkinlik va realizm elementlari tahlil qilindi [1].

Feministik adabiyot nazariyasi – Simone de Beauvoir, Virginia Woolf va Elaine Showalter qarashlari asosida asardagi ayollar obrazlari baholandi.

Qiyosiy metod – “Dekameron” Dante va Petrarka asarlari bilan hamda keyingi Uygʻonish adabiyoti bilan solishtirildi.

Asosiy qism

1. “Dekameron”ning yaratilish sharoiti

Asar qora oʻlatdan keyingi Florensiyada yozilgan boʻlib, jamiyatdagi inqiroz, axloqiy inqilob va insoniy qadriyatlarga qayta nazar tashlash zaruriyatini aks ettiradi. Jamiyatdagi bu insoniy qadriyatlar asosan katolik cherkovi cheklovlari va ularga berilgan behisob imkoniyatlarning ortidan yoʻq boʻlib ketgan edi. Bularga misol qilib

cherkov tomonidan boylar uchun inkvizitsiya, ilm-fanni dushman deb tanishtirish eng katta sabablardan edi. Boccaccio hayotni zavq bilan qabul qilish, aql-zakovat va muhabbatni ulug‘lash orqali yangi davr adabiyotining poydevorini qo‘ydi[1].

2. Ayol obrazi transformatsiyasi

O‘rta asr diniy adabiyotida ayol ko‘pincha gunoh ramzi sifatida talqin etilgan bo‘lsa, “Dekameron”da u mustaqil fikrlovchi, hayotiy tajribaga ega, erkak bilan teng darajada qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Tarixiy manbalarga yuzlanadigan bo‘lsak, ushbu davrda ayolga oddiy bir buyumdek qaralgani uning odatiy fiziologik holatlaridan jirkanish, ularning oddiy tibbiy yordam ola olmasliklari tomonidan vafot etishlari aynan shu davrda ayolga nisbatan boshqa nuqtai nazardan razm solinishiga sabab bo‘lgan deya olamiz. Asarda ayolning sevgi, sadoqat, donolik va ijtimoiy hayotdagi faoliyati yangi tipdagi qahramon obrazini yaratadi[6].

3. Feministik adabiyot nuqtai nazari

“Dekameron”da tasvirlangan ayollar patriarxal jamiyatda ham o‘z shaxsiy hayoti va tanlovi uchun kurashadilar[5]. Asardagi ayol personajlarning son nisbatidan ko‘pligi, ularning yashab qolish uchun tuzgan rejalari va oqilona fikrlari; bu jihat feministik adabiyot nazariyasi bilan hamohang bo‘lib, Simone de Beauvoir va Virginia Woolf qarashlari bilan uyg‘unlashadi. Fransuz yozuvchisi Simone de Beauvoirning “Le Deuxie’m Sexe” asarida aynan erkaklarning “insoniyat” timsoli sifatida ko‘rilishi, ayollarning esa shunchaki soya ostida qolib ketishlari hamda ayolning oddiy jinsiy obyekt sifatida qaralishini ta’kidlaydi. Aynan Virginia Woolfning “To the light house” asarida esa qahramonlardan biri Lily Briscoe obrazi orqali ayolning ham mustaqil va erkin fikrlovchi shaxs ekanligi, san’ati tufayli o‘z ovozi ifodalashini ko‘rsatadi. Ayolning erkin subyekt sifatida tasvirlanishi keyingi adabiyotlarda feministik g‘oyalarga zamin yaratdi[7].

4. Uyg‘onish davri adabiyoti bilan umumiylik

“Dekameron”dagi realistik tasvir, hayotiy dialoglar va erkinlik g‘oyasi Dante, Petrarka va keyingi Yevropa adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi[4;8]. Bundan tashqari davom etib kelayotgan cherkov mavzusidan uzoqlashildi, lotin tilida emas, balki italyan tilida yozilgan asar uyg‘onish davriga mos va xos edi. uyg‘onish davrida roman, novella, esse kabi janrlar rivojlanib brogan. Dekameron asarinovella janrining poydevori bo‘lgan. Shu bois asar nafaqat Italiya, balki butun jahon adabiyoti rivojida burilish yasagan.

Natijalar

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

“Dekameron” o‘rta asr diniy-axloqiy stereotiplarini yengib, realizm va insonparvarlikni adabiyot markaziga olib chiqdi.

Asarda ayol obrazlari yangi tipdagi qahramonlar sifatida gavdalangan: ular mustaqil fikrlovchi, erkak bilan teng qaror qabul qiluvchi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi shaxslardir[2;6].

Ayolning erkinlik, muhabbat va donolik ramzi sifatida tasvirlanishi feministik g'oyalarning dastlabki manbai sifatida talqin etilishi mumkin.

“Dekameron”dagi realistik tasvir va hayotiy dialoglar keyingi Yevropa adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib, feministik adabiyot uchun zamin yaratdi.

Muhokama

O'rta asr diniy adabiyotida ayol ko'pincha “gunoh ramzi” sifatida tasvirlangan bo'lsa, Boccaccio asarida ayol obrazlari erkin subyekt, mustaqil qaror egasi sifatida gavdalanadi. Bu jihat o'z davri uchun yangilik bo'lib, patriarxal jamiyatning ustuvor stereotiplarini tanqid qiladi.

Feministik adabiyot nazariyasi nuqtai nazaridan qaranganda, “Dekameron”dagi ayol qahramonlar Beauvoirning “Ayol ikkinchi jins emas, balki erkin subyekt” degan g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Shuningdek, Virginia Woolfning “Ayolning o'z xonasi va erkin ovozi bo'lishi lozim” degan talabi “Dekameron”dagi ayollar hikoyalarida badiiy ifodasini topgan.

Asar Dante va Petrarka ijodidan farqli ravishda diniy mavzudan chekinib, hayot zavqi, muhabbat va shaxsiy erkinlikni ulug'laydi. Bu jihati bilan u Uyg'onish davrining yangi qadriyatlarini shakllantirgan.

Xulosa

Giovanni Boccaccio “Dekameron” orqali Uyg'onish davrining asosiy g'oyalarini – inson erkinligi, hayot zavqi va ayol obrazining yangicha talqinini taqdim etdi. Ayolning kuchli, faol va mustaqil shaxs sifatida tasvirlanishi feministik adabiyotning ilk nazariy va badiiy asoslarini shakllantirdi. Hikoyalarida ruhoniylarning ikkiyuzlamachiligi, erkaklarning ustunlik iddaolari kulgi va kinoya orqali fosh etilgan. Bu orqali ayolning ham erkak bilan teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi kerakli ilgari surilgan. Ayollar hikoyalar orqali nafaqat shaxsiy, balki ijtimoi mavqelarini ham isbotlaydilar: ular dono maslahat beruvchi, hatto jamiyatdagi axloqiy kamchiliklarni ko'rsatib beruvchi obrazlarda namoyon bo'ladi. Shu bois “Dekameron” nafaqat uyg'onish davri, balki butun jahon adabiyotining feministik yo'nalishida ham durdona asar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boccaccio, G. The Decameron. Translated by G. H. McWilliam. London: Penguin Classics, 2003.
2. Boccaccio, G. Dekameron. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
3. Burckhardt, J. The Civilization of the Renaissance in Italy. New York: Penguin, 1990.
4. Kristeller, P. O. Renaissance Thought and Its Sources. New York: Columbia University Press, 1979.
5. Beauvoir, S. de. The Second Sex. New York: Vintage Books, 2011.

6. Woolf, V. A Room of One's Own. London: Hogarth Press, 1929.
7. Showalter, E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. Princeton: Princeton University Press, 1977.
8. G'iyosov, S. Jahon adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 2002.
9. Yo'ldoshev, Q. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
10. Rahmatullayeva, G. Matn stilistikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

